



Vazirlik va idoralarni tashkil etish va tugatishda hanuzgacha aniq tartib belgilanmagan

2-betda o'qing



Vafot etgan xodimning nafaqasidan "urib" qolingan

5-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
21-NOYABR
SESHANBA

№ 46 (1406)

www.hudud24.uz

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



"Adolat nashrlari" telegram kanalida kuzating!



www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

ADLIYA XABARI

"YANGI NAFAS" — CHEKSIZ IMKONIYATLAR MARAFONI



Adliya vazirligining "Biz birgamiz!" ijtimoiy loyihasi doirasida o'tkazilayotgan tadbirlar nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish sohasida davlat siyosatini yuritish, ularning davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlashga ko'maklashishdek muhim vazifalarni qamrab oladi.

Vazirlik tomonidan O'zbekiston nogironlar jamiyati bilan hamkorlikda nogironligi bo'lgan shaxslarni birlashtirish hamda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2018-yildan buyon amalga oshirilayotgan mazkur ijtimoiy loyiha doirasida bugungi kungacha qadar ko'plab yirik ijtimoiy tadbirlarni o'tkazishga erishildi.

"Biz birgamiz!" ijtimoiy loyihasi doirasida nogironligi bo'lgan shaxslar bu gal "Davlat bayrog'i qabul qilingan kun"ga bag'ishlangan "Yangi nafas" xalqaro ommaviy yugurish musobaqasida qatnashdi.

Marafon bir vaqtning o'zida respublikaning 16 ta shahrida o'tkazildi.

Mazkur yugurish musobaqalarida O'zbekiston Nogironlar, Karlar hamda Ko'zi ojizlar jamiyatlarining 1000 ga yaqin a'zolari ishtirok etdi.

"Yangi nafas" marafoni cheksiz imkoniyatlar marafoniga aylandi.




Tarixni bilmasdan kelajakning yorug' kunlarini ko'rib bo'lmaydi. Barcha insonlar uchun muqaddas hayotiy qo'llanma bo'lgan o'n besh asrdan buyon biron-bir so'z yoki harfi o'zgarmasdan qo'llanilib kelayotgan ikki dunyo saodatiga yetaklovchi inson qalbini yorituvchi o'zgarmas Qur'oni karim kitobida bu haqida batafsil bayon qilingan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Biz uchun inson, uning qadr-qimmatini qanchalik yuksak bo'lsa, uning xotirasi ham shunchalik muqaddasdir... Vatan ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan ota-bobolarimizning nomlarini oqlash, ularning faoliyati, ilmiy-ijodiy merosini o'rganish, xotirasini e'zozlashga yanada muhim ahamiyat qaratmoqdamiz" — deya ta'kidlab kelmoqdalar.

Adliya, prokuratura va sud organlarida ko'p yillar faoliyat yuritgan, adliya organlari faxriylar kengashiga uzoq yillar raislik qilgan, Adliya vazirligi tarixi muzeyini tashkil qilishda fidoyilik ko'rsatgan Ermuhammad Shermatov tomonidan yozilgan "O'tmishdan kelgan adolatli nidolar" nomli kitob o'ziga xos uslubda yozilganligini e'tirof qilmoq lozim.

TARIX TILGA KIRGANDA...



7-betda o'qing

2 QONUNCHILIKKA TAKLIF



Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni hamda davlat dasturlarining to'liq bajarilishini ta'minlay oladigan, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolarni o'z vaqtida aniqlab, hal eta oladigan davlat boshqaruvi tizimini yaratish muhim vazifa hisoblanadi.



VAZIRLIK VA IDORALARNI TASHKIL ETISH VA TUGATISHDA

hanuzgacha aniq tartib belgilanmagan

2022-yilda o'tkazilgan o'rganish natijalariga ko'ra, vazirlik va idoralarni tashkil etish va tugatishning hanuzgacha aniq tartibi belgilanmagan yoki yagona huquqiy hujjat qabul qilinmagan kelgusida bir qancha salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi ta'kidlangan edi. Tahlillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, davlat boshqaruvi organlari sonining keskin oshib ketishi sohada yagona yondashuvni shakllantirish va ixcham davlat boshqaruvi tizimini joriy qilish, shuningdek, moliyaviy, kadr, moddiy-texnika resurslarini maqbullashtirishga imkon bermayotgani ko'rinadi.

Bundan tashqari, korporativ boshqaruv joriy qilinishi kerak bo'lgan sohalarda vazirlik darajasidagi davlat muassasalari ("O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati, "O'zbekbaliq-sanoat" uyushmasi, "O'zbekipak-sanoat" uyushmasi), qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq, tadbirkorlik sohasida bir qancha fondlar va uyushmalar tashkil etilgan. Ikkinchidan, davlat boshqaruvi organlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalar ijrosining takrorlanishiga, bu esa aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu kabi holatlar turli byurokratik rasmiyatchiliklar ko'payishiga olib kelmoqda. Shuningdek, davlat boshqaruvi organlarining asosiy ta'minoti budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilishidan kelib chiqib, undagi yuklama yildan-yilga ortib bormoqda.

Mamlakatimizda vazirlik va idoralar asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat va jamiyatning turli sohalarga oid muayyan masala paydo bo'lganda uni hal etish zarurati yuzaga kelgan hollarda tashkil etiladi va tugatiladi. Konstitutsiyaga ko'ra, Prezident vazirliklarni va boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini tuzadi hamda tugatadi, shu masalalarga doir farmonlarni keyinchalik Oliy Majlisning Senati tasdig'iga kiritadi.

XORIJ TAJRIBASI QANDAY?

Mazkur sohada xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilganda, davlat boshqaruvi organlari tarkibiy tuzilmalarini tashkil etish bo'yicha minimal normativ va mezonlar ishlab chiqilgani ma'lum bo'ldi. Misol uchun, AQShda hukumat tarkibiga o'zgartirish kiritish uchun Prezidentning farmoyishi chiqarilishi va u qonun chiqaruvchilar tomonidan tasdiqlanishi talab qilinadi.

Yaponiyada yangi vazirlik va idoralarni tashkil etish maxsus qonunlar qabul qilishni talab qiladi. Bunday amaliyot mamlakat uchun kelajakda davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirishning asosiy yo'lini, ya'ni alohida vazirlik va idoralar nomidan ish yurituvchi va to'liq davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar majmuasi ko'rinishidagi bo'ttirilgan ma'muriy sohada ixcham hukumat tuzilmasini yaratish imkonini yaratgan. Yaponiyada tashkil etish to'g'risidagi maxsus qonunlar asosida quyidagi masalalar hal qilinadi:

- ✓ vazirliklar, komissiyalar va idoralarni tashkil etish, ularning vakolat doirasini belgilash;
- ✓ yuqoridagi tuzilmalarning ichki bo'linmalarini: kotibiyatlar, byuro-lar va bo'limlarni tashkil etish;
- ✓ birlashtirilgan tuzilmalar: kengashlar, maslahat organlari, eksperimental laboratoriyalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqalarni tashkil etish va vakolat doirasi;
- ✓ vazirlik va idoralarning mahalliy (mintaqaviy) organlarining vakolat doirasini belgilash.

Misol uchun, "Davlat boshqaruvi tuzilmasi to'g'risida"gi qonunning 7-moddasiga ko'ra, markaziy boshqaruv tashkiliy tuzilmasining asosiy bo'linmalari vazirlikning markaziy apparati, vazirlik,

komissiya va ma'muriyatdan iboratligi keltirilgan.

"Tuzilma to'g'risida"gi qonunda esa vazirliklarning yagona tuzilmasi belgilangan bo'lib, ular kotibiyat, byuro, boshqarmalar, bo'limlar va kanselyariyalardan iborat bo'lishi kerak. Shuningdek, "Tashkil etish to'g'risida"gi qonunda vazirlik va idoralarni tashkil etishning umumiy tartibi hamda ularning ichki tashkiliy tuzilmasini tartibga solishdan tashqari, vazirlik va idoralarning vazifa va vakolatlari belgilab beriladi.

Ushbu qonunlarning barcha qoidalari bo'lim ishida eng yuqori aniqlik va shaffolikka erishish, turli bo'limlarning funksiyalari va vakolat sohalarining takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadini ko'zlagan holda juda chuqur va batafsil taqdim etilgan.

Gruziyaning "Gruziya hukumati tuzilmasi, vakolatlari va faoliyati tartibi to'g'risida"gi qonunining 14-moddasiga ko'ra, vazirliklar davlat va jamiyat hayotining muayyan sohalarda davlat boshqaruvin ta'minlash maqsadida qonun asosida tashkil etiladi. Mazkur qonunning 15-moddasiga asosan vazirlik hukumatga hisobot beradi va qonun bilan belgilangan yoki hukumat va bosh vazir tomonidan qonun asosida tayinlangan vazifalarni bajaradi. Shuningdek, mazkur qonunning 16-moddasiga ko'ra, vazirlikning boshqaruv sohasi vazirlik to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

Moldova Respublikasining "Markaziy davlat boshqaruvi to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, ijro organlarining institutsional tuzilishi, ularni tashkil etish va tugatish tartibi hamda vazifa va vakolatlari belgilangan. Shuningdek, vazirlik va idoralarning huquqiy maqomi, vazifa va vakolatlari mustahkamlangan.

Qonunning 14-moddasida vazirlik tarkibiy tuzilmasiga kiruvchi tuzilmalar belgilangan. Xususan:

- ✓ agentlik vazirlik tarkibiy tuzilmasidagi alohida tashkiliy tuzilma bo'lib, vazirlik faoliyat sohalaridagi tegishli sohalarni boshqarish funksiyalarini amalga oshirish uchun tashkil etiladi;
- ✓ davlat xizmati vazirlik tarkibiy tuzilmasidagi alohida tashkiliy tuzilma bo'lib, davlat xizmatlarini ko'rsatish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni berish uchun tashkil etiladi;
- ✓ davlat inspeksiyasi vazirlik tarkibiy tuzilmasidagi alohida tashkiliy tuzilma bo'lib, vazirlik faoliyatiga tegishli sohalarda davlat nazoratini hamda nazorat funksiyalarini amalga oshirish uchun tashkil etiladi.

TAKLIF

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ixcham davlat boshqaruvi tizimini yaratish, davlat boshqaruvi organlari sonining asossiz kengayishiga yo'l qo'ymaslik hamda boshqaruv organlari samaradorligiga erishish maqsadida davlat boshqaruvi organlarini tashkil etish va tugatishning tartibini belgilab beruvchi "Davlat boshqaruvi tuzilmasi to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilsa, albatta, yuqoridagi muammolarni bartaraf etgan bo'lar edik.

Jamiyatda xalq, millat, aholi va oila tinchligi, uning manfaatlarini oliy qadriyat hisoblanadi. Shu jihatdan O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasida "Inson – jamiyat – davlat" va "Inson qadri uchun" kabi ezgu g'oyalar ustuvor etib belgilandi. Inson manfaatlarini, qadr-qimmatini ustuvorligi asosiy o'ringa ko'tarildi. Ushbu tamoyillar konstitutsion islohotlarning bosh mezoniga aylandi.

Xususan, mamlakatimiz Konstitutsiyasida mehnatga oid normalarning ifodalanishi ushbu sohada islohotlarning tizimli ravishda jamiyat va xalq uchun birinchi navbatdagi zaruriylik tamoyiliga asoslanadi va har bir fuqaroning o'z mehnat huquqlarini tenglik asosida amalga oshirishi uchun kafolat hisoblanadi.

Konstitutsiyada belgilangan mehnatga oid normalarning ayrimlari haqida to'xtalib o'tsak.

Mehnat munosabatlarining KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI



TENGLIK PRINSIPI

Konstitutsiyaning 19-moddasi ikkinchi qismida barcha fuqarolarning tengligi prinsipi belgilangan. Ushbu norma qoidalarini Mehnat kodeksining 4-moddasida ham o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, har kim mehnat huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda teng imkoniyatlarga ega va mehnat hamda mashg'ulotlar sohasida kamsitish taqiqlanadi.

MUNOSIB MEHNAT SHAROITLARINI YARATISH

Konstitutsiyaning 42-moddasida har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida kamsitishsiz ishlash va mehnatiga yarasha hamda turmush darajasi uchun munosib haq olish kafolati belgilab berilgan.

Muhim normalardan biri: Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqirini kamaytirish taqiqlanadi. Mazkur norma to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi bilan homilador va yosh bolali ayollar uchun Konstitutsiyaviy kafolat va mustahkam tayanch vazifasini o'taydi. Mehnat kodeksining 119-moddasiga ko'ra, "homiladorlik yoki farzandlar borligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ishga qabul qilmaslik qonunga xilof rad etish" deb baholanadi.

BANDLIK MASALASI

Konstitutsiyaning 43-moddasiga ko'ra, davlat fuqarolarning bandligini ta'minlashni, ularni ishsizlikdan himoya qilishni, kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rishni va shu bilan birga, ularning kasbiy tayyorgarligi va qayta tayyorlanishini tashkil etishni kafolatlaydi.

MAJBURIY MEHNATNING TAQIQLANISHI

Ma'lumki, mamlakatimizning eski Konstitutsiyasida ham, yangi Konstitutsiyasida ham "Majburiy mehnat to'g'risida"gi Xalqaro (28.06.1930 y. Jeneva) Konvensiyaning qoidalarini nazarda tutilgan bo'lib, Konstitutsiyaning 44-moddasida

ifoda etilgan. Unga ko'ra, sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi. Bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi.

DAM OLISH VA MEHNAT TA'TILI

Mehnat munosabatlari sohasida xodimning asosiy huquqlaridan biri, munosib ishda ishlash bilan birga dam olish va o'z vaqtida ta'til olish hisoblanadi. Ushbu qoidalar Konstitutsiyaning 45-moddasida o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra, har kim dam olish huquqiga ega, yollanib ishlovchilarga dam olish huquqi ish vaqtining davomiyligini, dam olish va ishlamaydigan bayram kunlarini, haq to'lanadigan har yilgi mehnat ta'tilini belgilash orqali ta'minlanishi belgilangan.

O'QITUVCHINING QADR-QIMMATINI KO'TARISH

Jamiyatning barkamol ulg'ayishi va bilimli bo'lishida, shubhasiz, o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. Konstitutsiyaning 52-moddasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.


GENDER TENGLIGI

Konstitutsiyaning 58-moddasida davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi aniq belgilab berildi.

Shavkat XAMRAQULOV,
Adliya vazirligi Inson resurslari boshqarmasi bosh maslahatchisi

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA RIVOJLANAYOTGAN QONUNCHILIK

1992-yil 8-yanvarda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmoni bilan mustaqil O'zbekiston adliya vazirligi tashkil topdi. Adliya organlari huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilandi. Bevosita joylarda huquqni qo'llash amaliyotini izchil va bir xilda ta'minlash hamda huquqiy savodxonlikni yuksaltirish maqsadida tuman, shaharlarda adliya bo'limlari tashkil etildi.



Bugungi kunda xalqimiz barcha turdagi xizmatlarni ortiqcha ovoragarchiliksiz davlat xizmatlari markazlari orqali tezkor, qulay va zamonaviy shakllarda olmoqda. Endi idorama-idora yurishning hojati yo'q, barcha davlat xizmatlari bo'yicha muammolar bir joyda hal qilinadi. Adliya vazirligi tasarrufidagi mazkur soha faoliyati samarali yo'lga qo'yilishi natijasida davlat xizmatlari soni yil sayin ortib bormoqda. Buning natijasi o'laroq, mamlakatimiz jahonning "Doing Business 2018" global reytingidagi "Biznesni ro'yxatdan o'tkazish" ko'rsatkichi bo'yicha mavqeiini mustahkamlab bormoqda. 2020-yilda bu ko'rsatkich bo'yicha davlatimiz 8-o'rinni egalladi.

2018-yil 13-aprelda Prezident qarori bilan Adliya vazirligi huquqni muhofaza qiluvchi organ etib belgilandi va vazirlik vakolatlari yanada kengaytirildi.

Shuningdek, "E-notarius.uz" axborot portali, "bolahuquqlari.uz", "Biznesga maslahat" (Advice for business), "test adliya.uz" saytlari ishga tushirildi. Vazirlikning ijtimoiy tarmoqlarda Facebook, Youtube, Twitter, Instagram sahifalari ochildi. Advice.uz huquqiy portali orqali bepul huquqiy maslahatlar berila boshlandi. "E-qaror" elektron tizimi orqali hokim qarorlari ochiq, shaffof qabul qilinishi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tashkil etilishiga ruxsat berildi. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish jarayoni to'liq elektron shaklga o'tkazildi. Yuristlar malakasini oshirish markazining hududiy filiallari tashkil etildi. Adliya vazirligi faoliyati haqida keng jamoatchilikka muntazam axborot berib borish, ularning huquqiy ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga qaratilgan "Ochiq adliya" ("Open Justice") dasturi qabul qilindi. Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish Konsepsiyasi qabul qilindi.

Adliya organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi tasdiqlandi va vazirlik davlat organlari orasida birinchilardan bo'lib korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi" xalqaro ISO 37001 standarti muvofiqlik sertifikatiga ega bo'ldi.

Adliya vazirligi Prezident hujjatlari ijrosini nazorat qilish bo'yicha "ijro.gov.uz" tizimiga mas'ul etib belgilandi. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi maqomiga ega bo'ldi.

Shaffoflik va samaradorlikni ta'minlash maqsadida qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, kelishish va huquqiy ekspertizadan o'tkazish, shuningdek, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha project.gov.uz – yagona elektron tizimi joriy qilindi.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi qabul qilindi. Davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligini baholash tizimi joriy qilindi. "Huquqiy axborot" telegram kanali o'zbek, rus, ingliz, qoraqalpoq tillarida tashkil etildi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarga adliya organlari bilan bog'liq barcha xizmat va aloqalarni elektron shaklda amalga oshirish imkonini beruvchi "e-ngo.uz" – portali ishga tushirildi.

Bir so'z bilan aytganda, adliya tizimi xalq bilan hamnafas davlat organi sifatida aholining huquqiy madaniyatini oshirish, qonun ustuvorligini ta'minlashga samarali xizmat qilmoqda.

Nargiza ABDULLAYEVA,
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA



SURXONDARYO

Ma'lumki, o'qituvchilarni qo'shimcha rag'batlantirish maqsadida umumta'lim fanlari bo'yicha tegishli darajadagi sertifikatga ega bo'lgan pedagog kadrlarga har oylik qo'shimcha ustama to'lash tizimi joriy qilingan.

SOXTA SERTIFIKAT UCHUN
JAVOBGARLIK BOR

Ayrim hollarda "uddaburon" shaxslar tomonidan mazkur sertifikatlarni soxtalashtirib, o'qituvchilarga ma'lum bir mablag' evaziga pullash holatlari ham kuzatilishi mumkin. Bunday harakat uchun qonunchilikda javobgarlik belgilangan.

Shuni unutmamak lozimki, o'qituvchilar tomonidan taqdim etilgan sertifikatlarning haqqoniyligiga sertifikat egasi shaxsan mas'ul hisoblanadi.

Agar qalbakli sertifikatlar aniqlanadigan bo'lsa, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Jinoyat kodeksining 228-moddasiga asosan sudga murojaat qilishi va aybi isbotlangan holatda eng kamida ushbu xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 228-moddasiga ko'ra, hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalangan shaxslar – 15 million so'mdan – 30 million so'mgacha jarama yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazonaladi.

A. ABDIRAHIMOV,

Boysun tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



XORAZM

Mehnat kodeksining 385-moddasiga ko'ra, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tashkilotlarida kechki yoki sirtqi ta'lim shakli bo'yicha o'qiyotgan xodimlarga laboratoriya-imtihon sessiyalarida ishtirok etgan davr uchun o'quv ta'tillari beriladi. Jumladan, oliy ta'lim tashkilotlarida kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan birinchi va ikkinchi kurs talabalariga – kamida yigirma kalendar kun, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tashkilotlarida – kamida o'n kalendar kun, oliy va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida sirtqi ta'lim olayotganlarga esa – kamida o'ttiz kun, oliy ta'lim tashkilotlarida kechki ta'lim shaklida uchinchi va undan yuqori kurslarda o'qiyotganlarga – kamida o'ttiz kalendar kun, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tashkilotlarida – kamida yigirma kalendar kun, oliy va o'rta maxsus ta'lim, kasb hunar ta'limi tashkilotlarida sirtidan o'qiyotganlarga esa kamida qirq kalendar kun muddatga o'rta ish haqi saqlangan holda har yili berilishi belgilangan.



Ish beruvchi mehnat shartnomasi bo'yicha ishdan ajralmagan holda ta'lim tashkilotlarida o'qitilayotgan, qayta tayyorlashdan yoki malaka oshirishdan, ishlab chiqarish ta'limini o'tayotgan xodimlarga ish va o'qishni birga olib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi shart.

O'QUV TA'TILLARI

kimlarga
beriladi?

Mehnat to'g'risidagi qonunchilik yoki mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilganiga nisbatan davomiyligi ko'proq bo'lgan o'quv ta'tillari nazarda tutilishi mumkin. Ishni o'qish bilan birga olib borayotgan xodimlarga navbatdagi mehnat ta'tillari ular o'quv ta'tillaridan foydalaniganidan qat'iy nazar beriladi.

Shuningdek, ish beruvchi oliy ta'lim

tashkilotlarida sirtidan tahsil olayotgan xodimlarga imtihon sessiyasida ishtirok etish uchun ta'lim tashkilotiga borishi va u yerdan qaytib kelishi uchun yiliga bir marta yo'l-kira haqining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorini to'laydi.

IXLOSBEK ESHCHANOV,

Tuproqqal'a tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi mas'ul xodimi



SAMARQAND

Yaqin yillargacha oliy ta'lim muassasasini bitirganlik to'g'risidagi diplomini yo'qotib qo'ygan kishilar ko'plab idoralarning eshigini taqillatishiga to'g'ri kelardi.



Yo'qolgan hujjatning dublikatini olish

ENDI BU JUDA OSON

Qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlar bilan bu ovoragar-chilikka chek qo'yildi. Ya'ni, hukumatning tegishli qaroriga ko'ra, Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning dublikatini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti tasdiqlandi. Unga ko'ra, yo'qolgan yoki foydalanish uchun yaroqsiz holga kelgan, shuningdek, shaxsning ismi (familiyasi, otasining ismi) o'zgarganda ta'lim to'g'risidagi rasmiy davlat hujjatlari dublikatini olish maqsadida davlat xizmatidan foydalanish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlarda fuqarolar mazkur masalada davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilishlari kifoya. Ushbu xizmatni amalga oshirishda ariza to'ldirish jarayonida fuqaroning shaxsiy ma'lumotlari, yashash manzili va ta'lim olingan muassasa nomi haqidagi ma'lumotlar kiritilishi lozim bo'ladi. Xizmatdan foydalanishda eng kam oylik ish haqining bir barobari miqdorida to'lov amalga oshiriladi.

Mazkur xizmatning yana bir qulayligi shundaki, diplom dublikatini yetkazish uchun pochta kuryerlik xizmati ham mavjud bo'lib, jo'natmaning holati va qo'shimcha ma'lumotlarni "Uz-Post" sahifasi orqali bilib borish mumkin. Yuborilgan murojaat 15 ish kunida ko'rib chiqiladi. Muhimi, dublikat asl hujjat bilan bir xil yuridik kuchga ega. Fuqaro murojaatni onlayn to'ldirganda, undan elektron raqamli imzo talab etilmaydi. So'rovnomada noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilsa, ularni bartaraf etish uchun ariza beruvchiga 5 ish kuni muddat beriladi. So'rovnomada tushgandan boshlab 10 ish kunida hujjat dublikati rasmiylashtiriladi va bu haqida ariza beruvchiga xabar beriladi.

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, shu kunga qadar Samarqand shahar davlat xizmatlari markazi orqali 562 ta ariza qabul qilingan bo'lib, ushbu murojaatlarning 354 tasi to'liq qanoatlanirilgan, 46 ta ariza ko'rib chiqish jarayonida hamda 28 tasi asosli rad etilgan.

MADINA QURBANOVA,


Samarqand shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi mas'ul xodimi



QORAQALPOG'ISTON

BEKOR TURIB QOLGAN
XODIMGA ISH HAQI TO'LAB
BERILDI

Fuqaro M.M. oylik maoshi to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib, To'rtko'l tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.



O'rganish davomida aniqlanishicha, M.M. To'rtko'l tuman maktabgacha ta'lim bo'limida kadrlar bilan ishlash sho'basini mudiri lavozimida ishlab kelgan. Prezidentimizning 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2023-yil 25-yanvardagi "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlariga muvofiq, tuman xalq ta'limi bo'limi va tuman maktabgacha ta'lim bo'limlari qo'shilib, tuman maktabgacha

ta'lim va maktab ta'limi bo'limi sifatida qayta tashkil etilgani sababli M.M.ga tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan mehnat shartnomasi ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilinishi to'g'risida ogohlantirish xati berilgan, biroq ogohlantirish xatining muddati o'tib ketgan bo'lsa-da, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinmagan. Natijada xodim ish beruvchining aybi bilan bekor turib qolgan. Eng achinarlisi, xodimga joriy yilning may-iyun oylari davomida ish haqi to'lanmagan.

Vaholanki, amaldagi Mehnat kodeksining 266-moddasiga asosan,

ish beruvchining aybi bilan bekor turib qolgan vaqt uchun xodimning o'rta ish haqi miqdorida haq to'lanishi belgilangan.

Mazkur holat yuzasidan, tuman adliya bo'limi tomonidan M.M.ga to'lanmay qolgan ish haqi to'lovlari uchun 4 million 432 ming 902 so'm miqdoridagi mablag'ni to'lash bo'yicha tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i nomiga taqdimnoma kiritildi va M.M.ning huquqi tiklandi.

DAVRONBEK ALLABERGENOV,

To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi mas'ul xodimi




NAMANGAN



Sportchilarga sport pasportini berish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 24-iyuldagi qarori qabul qilingan. Bunda sport pasportini berish bo'yicha davlat xizmatini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali – YalDXP yoki davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yildi.

SPORT PASPORTI

sportchining mansubligi va malakasini tasdiqlaydi



Davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatilishining belgilangan tartibi bajarilishi yuzasidan YalDXP orqali doimiy nazorat o'rnatilgan va ushbu qaror bilan tasdiqlangan ma'muriy reglament talablarini buzganlik uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslariga nisbatan belgilangan tartibda ma'muriy jazo qo'llash ko'rsatib o'tilgan.

Sport pasporti – yagona namunadagi hujjat bo'lib, sportchining jismoniy tarbiya va sport tashkilotiga mansubligini hamda uning sport malakasini tasdiqlaydi:

- ✓ sport pasporti 2-o'smirlar sport razryadidan past bo'lmagan razryadga ega bo'lgan, tegishli (bir yoki bir necha) sport turi bilan muntazam ravishda shug'ullanib kelayotgan va sport musobaqalarida doimiy ravishda ishtirok etuvchi sportchiga beriladi. Sport pasportining amal qilish muddati 3 yildan 5 yilga uzaytirildi.

Sportchilarga sport pasportini berish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish tartibi quyidagicha:

- ✓ ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanish uchun davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib murojaat qiladi yoki elektron tarzda YalDXP tizimidan ro'yxatdan o'tadi;
- ✓ davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat qilganda, uning ma'lumotnoma-anketasi davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan to'ldirilib, ariza beruvchi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng real vaqt rejimida vakolatli organga elektron shaklda yuboriladi;
- ✓ 16 yoshga to'lmagan sportchilar uchun ularning ota-onasi yoki qonuniy vakili tomonidan murojaat qilinadi;
- ✓ arizaga ilova qilingan hujjatlar va ulardagi ma'lumotlarning to'g'ri rasmiylashtirilgani davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan tekshirib olinadi;
- ✓ "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan shaxslarga, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga sport pasporti uchun to'lovlarda 50 foiz miqdorida imtiyoz qo'llaniladi;
- ✓ ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishdan bosh tortganda, sport pasportini berish uchun to'langan yig'im summasi ariza beruvchining yozma murojaatiga asosan vakolatli organ tomonidan to'liq qaytariladi.

Ariza beruvchi YalDXP orqali murojaat qilganda, uning ma'lumotnoma-anketasi avtomatik tarzda vakolatli organga yuboriladi. Vakolatli organ ariza kelib tushgan kundan boshlab bir kun muddatda:

- ✓ ma'lumotnoma-anketada ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshiradi, sportchi haqidagi tegishli ma'lumotlarni yagona elektron boshqaruv tizimiga kiritadi, sport pasportini yagona elektron boshqaruv tizimida qayd qiladi, shundan so'ng ariza beruvchi yoki uning qonuniy vakilini bu haqda elektron tarzda xabardor qiladi. Vakolatli organ tomonidan ariza beruvchi elektron tarzda xabardor qilinganidan boshlab besh kun muddatda pochta xizmati orqali tayyor bo'lgan sport pasporti sport tashkilotiga yetkazib beriladi. Sport pasporti qabul qilib olingan vaqtdan boshlab bir kun muddatda sportchiga yoki uning qonuniy vakiliga topshiriladi.

Ixtiyor ORZIQULOV,

Davlatobod tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi mas'ul xodimi



SAMARQAND

VAFOT ETGAN XODIMNING NAFAQASIDAN "URIB" QOLINGAN



Kattaqo'rg'on shahrida yashovchi fuqaro N.R.ning turmush o'rtog'i "Paxta tozalash zavodi" AJ linterlash sexida chiqindilarni yig'uvchi va tozalovchi vazifasida ishlab kelgan. 2018-yilning 12-fevralida quritish sexi binosida kuchli gaz bosimi natijasida sodir bo'lgan portlash oqibatida tan jarohati olib, vafot etgan. Korxona ish vaqtida baxtsiz hodisa tufayli vafot etgan marhumning oilasiga moddiy va ma'naviy yordam berish o'rniga, biryola to'lanadigan nafaqa pulidan 10 million so'm "urib" qolgan.

Ya'ni, xodimning vafotigacha ishlagan o'n oylik ish davri uchun 9 million 718 ming 272 so'mga noto'g'ri hisob-kitob qilinib, jami 46 million 15 ming 848 so'm nafaqa to'langan. Marhumning turmush o'rtog'i bundan norozi bo'lib, Kattaqo'rg'on shahar adliya bo'limiga murojaat qildi. Adliya bo'limi tomonidan fuqaro manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Kattaqo'rg'on tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Afsuski, cho'kayotgan odam xasga ham yopishadi, deganlaridek, sud majlisida korxonaning ishonchli vakili J.I. da'voni tan olmasdan, da'vo muddati o'tib ketgani sababli uni qanoatlantirishni rad etishni so'radi.

Vaholanki, jabrlanuvchi zarar yetkazilgan vaqtda o'n ikki oydan kam ishlagan taqdirda, o'rta oylilik ish

haqi haqiqatda ishlagan umumiy ish haqini ishlagan oylar soniga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqariladi. Ish davri to'liq oydan kam vaqtni tashkil qilgan taqdirda, zararni to'lash miqdori shartli oylik ish haqi (daromad) miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

O'sha paytda amalda bo'lgan Mehnat kodeksining 192-moddasiga ko'ra, xodim mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligi yoki mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda sog'lig'iga boshqacha tarzda shikast yetishi sababli vafot etgan hollarda, ish beruvchi marhumning qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga, shuningdek, o'n olti yoshga to'lmagan yoki vafot etgan kunga qadar undan ta'minot olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga, marhumning vafotidan keyin tug'ilgan farzandiga, shuningdek, ota-onasidan biriga, umr yo'ldoshiga yoki oilaning boshqa a'zosiga, agar u ishlamasdan marhumning uch yoshga yetmagan bolalari (ukalari, singillari) yoki nevaralarining parvarishi bilan band bo'lsa, zararni to'lashi shart.

Sud da'vo arizasini qisman qanoatlantirib, "Kattaqo'rg'on paxta tozalash" AJga bir yo'la to'lanadigan nafaqadan 9 million 718 ming 272 so'm hamda 8 million so'm ma'naviy zararni to'lash majburiyatini yukladi.

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi
Axborot xizmati

HUQUQIY MASLAHAT

MULK
SOTILGANDA...

– Qanday mulklar sotilganda notarius tomonlarning, ya'ni er va xotinning roziligini olmaydi?
Sojida ODILOVA,
Navoiy shahri

– Nikoh qayd etilgunga qadar sotib olingan, meros tariqasida yoki hadya shartnomasi bo'yicha olingan, shuningdek, nikoh davomida sotib olingan ko'chmas mulk nikoh shartnomasiga asosan taqsimlab olingan bo'lsa yoki er-xotin o'rtasidagi mulkni bo'lish to'g'risidagi sud hujjati yoxud notarial tartibda rasmiylashtirilgan kelishuv mavjud bo'lsa, bitimni tasdiqlash uchun er yoki xotinning roziligi talab qilinmaydi.



– Agarda sotib olayotgan uy uchun to'lovning yarim pulini keyinroq beradigan bo'lsak, taqiq qo'yib, rasmiylashtirsak, taqiqning shartlari qanday bo'ladi?

Hasan BOTIROV,
Karmana tumani

– Bunda to'lov majburiyatini kechiktirish sharti bilan uy-joy oldi-soldi shartnomasi notarial tartibda rasmiylashtiriladi. Uy sotib oluvchi nomiga to'liq o'tkaziladi. Taraflar o'rtasida kelishilgan to'lovlar to'liq amalga oshirilgunga qadar notarius tomonidan uyga nisbatan taqiq qo'yiladi. Uyning pullari to'liq to'langach, sotuvchi to'lov to'liq amalga oshirilgani haqida ariza bilan notarial idoraga murojaat etadi va taqiq bekor qilinadi. Shuningdek, taraflar xohishiga ko'ra, uyni to'lovlari to'liq amalga oshirilgani haqida qo'shimcha kelishuv rasmiylashtirish mumkin.

Savollarga Karmana tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius
Shoira GULIMOVA javob berdi

6 KO'ZGU

BONG

Xabaringiz bor, joriy yilning 15-noyabridan 15-dekabriga qadar yurtimizda "Yong'in xavfsizligi oyligi" o'tkazilmoqda. Tadbiridan ko'zlangan asosiy maqsad iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlari, shuningdek, aholi turar joylarida yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni jadallash-tirish va bu ishlarda fuqarolarning ishtirokini ta'minlashdir.



TILSIY YOV – YONG'INDAN OGOH BO'LING!

Ob-havo haroratining pasayib borishi natijasida gaz va boshqa turdagi muqobil yoqilg'i isitish moslamalaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj ortib boradi. Isitish moslamalaridan noto'g'ri foydalanish oqibatida esa ko'ngilsiz hodisalar sodir bo'lishi hamda insonlar is gazidan zaharlanishi mumkin. Bunday noxush holatlarning oldini olish maqsadida gaz uskunalaridan va isitish moslamalaridan foydalanishda quyidagi yong'in va xavfsizlik talablariga rioya qilish lozim:

- ☑ qo'lbola va nosoz gaz isitish moslamalaridan foydalanmang;
- ☑ tungi vaqt aholi turar joylarida o'rnatilgan isitish tizimini nazoratsiz qoldirmang;
- ☑ oshxonada o'rnatilgan tabiiy gazda ishlovchi gaz plitalaridan xonalarni isitish maqsadida foydalanmang;
- ☑ isitish pechlari va ularning mo'ri-larining sozligiga, ular turli buyum va to'siqlar bilan berkitilmasligiga hamda maxsus tashkilotlar tomonidan o'z vaqtida tozalanishiga alohida e'tibor bering;
- ☑ isitish moslamalari yaqinida yonuvchan buyumlarni saqlamang;
- ☑ isitish moslamalaridan foydalanishda ularni ishlab chiqargan korxonaning tavsiya va yo'riqnomasi talablariga rioya qiling;
- ☑ gaz uskunalarini ulash tartib qoidalariga rioya qiling va ularga rezina shlangalar orqali ulanishga yo'l qo'ymang;
- ☑ agarda xonada gaz hidini sezsangiz, chiroq va uchqun chiqaruvchi moslamalardan aslo foydalanmang, darhol xonani shamollating hamda gaz xizmatiga zudlik bilan xabar bering.

Mazkur qoidalarga rioya etish orqali siz o'zingiz va yaqinlaringizni hamda uy-joyingizni ko'ngilsiz hodisalardan saqlagan bo'lasiz. Shunday ekan, hamyurtlarimizni faqat "Yong'in xavfsizligi oyligi" mobaynida emas, balki hamisha va har vaqt hushyor hamda ogo-h bo'lishga chaqiramiz!

Bekzod VALIJONOV,
Xusnidin BURXONOV,

Andijon viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari

Mazkur farmon asosida Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil etildi. Bundan ko'zlangan maqsad – joriy yilning 18-avgustida Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlash, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda jamg'arma faoliyatini jahon tajribasi asosida tashkil etish va tadbirkorlarga ko'maklashishdan iborat. Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ta'sischi-ligida tashkil etilgan ushbu jamiyatga ko'plab imtiyoz va vakolatlar berilmoqda.

Shuningdek, 2024-yil 1-martdan boshlab kompaniyaga tadbirkorlik subyektlariga bir qator qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilmoqda. Bu choralar kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan moliyaviy qo'llab-quvvatlashlar ustav kapitaliga ulush kiritish, xizmatlar ipotekasi, kompaniya resurslaridan kreditlar (lizing) ajratish, kafillik taqdim etish va tijorat banklari kreditlari bo'yicha kompensatsiya taqdim etish ko'rinishlarida bo'ladi. Xususan, o'rta tadbirkorlik korxonalarining ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish loyihalariga loyiha qiymatining 15 foizi, biroq ustav kapitalining 20 foizidan yoki 3 milliard so'mdan ortiq bo'lmagan miqdorda ko'chmas mulk obyektlari, asbob-uskunalar va boshqa ko'rinishdagi aktivlar shaklida ulush kiritilishi mumkin. Buning asosiy sharti 24 oydan ortiq faoliyat ko'rsatib kelayotgan va bir yil davomida kamida 50 nafar ishsizni ish bilan ta'minlash lozim. Kiritilgan ulushlar 7 yil davomida bozor qiymatida realizatsiya qilib boriladi. Bunday qo'llab-quvvatlash yo'nalishi Islom moliyasi tizimi qoidalariga bilan ham uyg'unligini alohida qayd etish lozim. Moliyalashtirishning islomiy modellari qoidalaridan biri – bu tavakkalchiliklarni taqsimlashdir. Biznesda foyda ko'rilmaganda bank ham, mijoz ham daromad olmaydi. Lekin agar foyda bo'lsa, u omonatchi bilan bank o'rtasida sarmoyaga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Shuning evaziga ulush kiritish bu pul mablag'laridan foydalanish va taqsimlash jarayonida Islom huquqi qoidalariga mos keluvchi iqtisodiy munosabatlarni o'z ichiga oladigan Islom ekotizimining bir qismi, deyish mumkin.


Ko'chmas mulk va asbob-uskunalarining 70 foizi, biroq 10 milliard so'mdan ortiq bo'lmagan miqdorda mulk sotib olish esa Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada yillik foiz stavkasini olish yoki bo'lib-bo'lib to'lash bilan xizmatlar ipotekasi 7 yilgacha taqdim etiladi.

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining loyihalariga kredit (lizing) ajratish uchun tijorat banklari, mikromoliya va lizing tashkilotlari milliy hamda xorijdagi valyutada moliyaviy resurslarni joylashtirish tarzida moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi. Bundan tashqari, tijorat banklari, mikromoliya

Prezidentimizning 2023-yil 10-aznnoyabrda imzolangan "Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida tashlangan yana bir muhim qadam bo'ldi.

KICHIK VA O'RTA BIZNES RIVOJI

bunda tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi ham muhim o'rin tutadi



hamda lizing tashkilotlari mulki milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit, lizing, bank resurslari va akkreditivlar-ga umumiy qiymati 5 milliard so'mdan oshmagan miqdorda kafillik taqdim etishi ham ko'zda tutilgan.

Tijorat banklari kreditlari yuzasidan kompensatsiya taqdim qilish bo'yicha esa faoliyat davri 3 yilgacha bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlariga 3 milliard so'mgacha miqdordagi kreditlar bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash ham belgilangan.

Moliyaviy yordamlar kompensatsiya shaklida alkogol va tamaki ishlab chiqarish hamda ularning savdosini tashkil etishga, ilgari olingan kredit lizing va boshqa qarzlarni qaytarishga, nobank kredit tashkilotlari, lizing hamda sug'urta tashkilotlari faoliyatini tashkil etishga, bino-inshoot, yengil va yuk transportlarini sotib olish hamda ta'mirlashga, savdo va umumiy ovqatlanish yoki yoqilg'i quyish shoxobchalarini tashkil etishga va aylanma mablag'larni shakllantirishga taqdim qilinmaydi.

Bexroz JO'RAYEV,

Sirdaryo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

MEHNAT QONUNCHILIGIDA SHUNDAY NORMA BOR!

Mehnat qonunchiligi bo'yicha xodimning bekor turib qolishi nima va u qanday oqibatlarga olib keladi?

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldan kuchga kirgan Mehnat kodeksida "bekor turib qolish" tushunchasiga ta'rif berilgan. Ya'ni, kodeksning 145-moddasi uchinchi qismiga asosan, ishni iqtisodiy, texnologik, tashkiliy sabablarga, boshqa ishlab chiqarishga doir yoki tabiiy xususiyatga ega bo'lgan sabablarga ko'ra vaqtincha to'xtatib turish bekor turib qolishdir. Bunda xodim yoki xodimlar jamoasi yuqoridagi sabablar tufayli o'z ishini davom ettira olmaydi.

QANDAY RASMIYLASHTIRILISHI KERAK?

Qonunchilikda xodimning bekor turib qolish holatini rasmiylashtirish tartibi aniq belgilanmagan. Lekin kelgusida bekor turib qolgan xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish, unga haq to'lash yoki kimning aybi bilan bekor turib qolish vujudga kelganligiga baho berish uchun mazkur faktni tasdiqlovchi hujjatlar rasmiylashtirilishi kerak. Masalan, qandolat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tashkilotga u bilan shartnoma tuzgan boshqa tashkilot tomonidan shakar mahsuloti vaqtida yetkazib berilmadi. Natijada ish to'xtab qoldi. Bunday hollarda ish beruvchi

bekor turib qolganlikning isboti bo'lishi uchun dalolatnoma tuzishi va buyruq chiqarishi maqsadga muvofiq.

BOSHQA ISHGA O'TKAZISH MUMKINMI?

Mehnat kodeksining 145-moddasi-ga asosan, ish beruvchi bekor turib qolgan xodimni uning roziligidan vaqtincha boshqa ishga o'tkazishi mumkin. Bunda xodimga avvalgi o'rtaacha oylik ish haqidin kam bo'lmagan miqdorda ish haqi to'lanishi kerak. Shuningdek, xodimni boshqa ishga o'tkazish davrlari bir kalendar yil davomida jami oltimish kalendar kundan oshishi mumkin emas.

HAQ TO'LANISHI KERAKMI?

Xodimga bekor turib qolish vaqti kimning aybi bilan sodir bo'lganiga qarab haq to'lanishi kerak. Jumladan, ish beruvchining aybi bilan bekor turib qolgan bo'lsa – xodimning o'rtaacha oylik maoshi miqdorida, ish beruvchiga va xodimga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra bekor turib qolgan bo'lsa, bekor turib qolgan vaqtga mutanosib ravishda hisoblangan tarif stavkasining (maoshining) kamida uchdan ikki qismi miqdorida to'lanadi. Xodimning aybi bilan bekor turib qolgan bo'lsa, haq to'lanmaydi.

Agar ish beruvchi xodimga uning aybisiz bekor turib qolganlik uchun haq to'lamasa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 49-moddasi bo'yicha bazaviy hisoblash miqdori-ni 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda ma'muriy jarimaga tortiladi.

Bonu RAHIMBERGANOVA,

Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi katta o'qituvchisi

➔ Davomi. Boshlanishi 1-betda



Mazkur kitob uchun asosiy materiallar O'zbekiston Respublikasi davlat arxividan, O'zbekiston milliy arxividan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti arxividan, Davlat xavfsizlik xizmati arxivi va boshqa tegishli muassasalardan olingan tarixiy hujjatlar, tarix va yuridik fan sohalari olimlari tomonidan tarixiy manbalar va huquqiy hujjatlariga tayanib yozilgan ilmiy asarlar asosida nashrga tayyorlangan.

TARIX TILGA KIRGANDA...



Muallif o'z oldiga adolati davlat va jamiyat barpo etishda adliya organlarining o'rni va rolini ochib berishni maqsad qilib qo'ygan va unga erishgan.

Muallif kitobni buyuk allomalimiz Abu Nasr Farobiy, Abul Lays As-Samarqandiy, Burhoniddin Al-Marg'inoniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning ilm va adolat haqidagi bebaho tarixiy meroslaridan iqtiboslar keltirish bilan birga ularning adolat qo'rg'onini yaratishdagi ulkan hissalarini qisqa satrlar orqali aniq va lo'nda ifodalashdan boshlagan.

Xususan, Amir Temur shaxsiy hayotida uch mo'tabar asos – diyonat, adolat va qat'iyat bilan amalga oshirilgan siyosatga tayangan. Uning "Kuch – adolatda" shiori Yangi O'zbekiston siyosatida ham o'z aksini topmoqda.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, – "Xalqimiz hamma narsadan ustun qo'yadigan adolatni hayotimizda tom ma'noda qaror toptirish eng asosiy vazifamizga aylanishi shart. Qonun adolati bo'lsa, u inson huquqlarini amalda himoya qilsa, shundagina odamlar qonunni hurmat qiladi va unga itoat etadi".

Ushbu kitob ikki bobdan iborat bo'lib, uning birinchi bobida Turkiston o'lkasi, O'zbekiston SSR Yustitsiya xalq komissarligi (ministriligi) va mustaqil O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga rahbarlik qilgan 38 nafar shaxsning hayoti va faoliyati keng yoritilgan.

Ularning adliya organlaridagi faoliyati orqali adliya vazirligini tashkil qilish, qayta tashkil qilish, tugatish va qayta tiklashga oid tarixiy manbalarga nazar tashlash, uning asosiy vazifalari va funksiyalarini tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

1917-yil 23-noyabrda Toshkent shahrida Turkiston o'lkasi Xalq komissarlar soveti 15 ta komissarlardan iborat tarkibda, shu jumladan Kogon shahrida oddiy sudya vazifasida ishlayotgan Vladimir Zaleskiy Yustitsiya komissari sifatida e'lon qilingan. Bundan hozirgi Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston hududida adliya vazirligi tashkil qilingan deyish uchun to'la asosga egamiz.

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi (O'zSSR) tashkil qilinguncha Yustitsiya komissarlari lavozimida Vladimir Zaleskiy, Aleksandr Sidorov, Aristax Zakakov, Abdullajon Muxammadjonov, R. Kapkayev, Husain Ibragimov, Sh. Axmetdiyev, Do'st Usatboyev, Bo'taboy Dadaboyev faoliyat yuritishganiga oid ma'lumotlar keltirilganligi ta'biriga molik.

Isqoq G'oziyev esa Turkiston ASSRning oxirgi va O'zbekiston SSRning birinchi Yustitsiya xalq komissari bo'lgan. Shundan keyin bu lavozimda O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar Ahmadbek Mavlonbekov, Shermat Ermatov, Eduard Sinat, Davronbek Ahmadbekov, Said Ali Xodjayev, Abram Abdurahmonov, Dadaxon Turdiyev, Vali Umarov, Ahror Muxtorov, Gulchira Xamzina, Kabir Komilov, Murod Sheraliyev, Xadicha Sulaymonova, Mamlakat Vosiqova, No'mon Bo'ruxo'jayev, Bahodir Olim-

jonov, Mirzo Ulug'bek Abdusalomov (ministr vazifasini bajaruvchi) faoliyat yuritganlar.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin Adliya vaziri lavozimida Muhammad Bobur Malikov, Alisher Mardiyev, Sirojiddin Mirsafoev, Abdusamad Polvon-zoda, Bo'ritosh Mustafoyev, Foziljon Otaxonov, Ravshan Muxitdinov, Nig'matilla Yo'ldoshev, Muzraf Ikramov, Ruslanbek Davletov faoliyat ko'rsatdilar. 2022-yil 16-noyabrden boshlab Akbar Toshqulov Adliya vazirligiga rahbarlik qilib kelmoqda.

"O'tmishdan kelgan adolati nidolar" kitobida Adliya vazirligining rahbarlari faoliyati orqali adliya vazirligining tashkil qilinishi, uning tarkibiy tuzilishi, asosiy vazifalari va funksiyalari, adliya organlari faoliyatining ijobiy va salbiy natijalari to'g'risida bizga ma'lum va noma'lum bo'lgan ma'lumotlar va tarixiy hujjatlar keltirilganligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, adliya organlarining rivojlanish bosqichlarini va rolini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganishda qimmatli manba bo'ladi.

Kitobning ikkichi bobida mam-lakatimizda XX asrda sodir bo'lgan fojiali voqealar, qatag'on qurbonlari, "paxta ishi" va "o'zbeklar ishi" arxiv materiallari va ishonchli manbalardan foydalanilgan holda yoritilgan.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mustaqilligimizning 31 yilligi bayrami munosabati bilan 2022-yil 31-avgust kuni Shahidlar xotirasi xiyobonida qatag'on qurbonlarini yod etish marosimida millatimiz ma'rifatparvarlari va qahramonlari bo'lgan qatag'on qurbonlari haqida gapirib, hali bu tarix oxirigacha o'rganilmagani, qatag'on qurbonlarini aniqlash va xotirasini tiklash bo'yicha izlanishlarni davom ettirish kerakligini ta'kidlab aytgan quyidagi so'zlarini keltirish o'rindir: "Butun dunyoda bir parcha qog'oz bo'lsayam, qancha mablag' ketsayam, o'zbek millatiga mansub hujjatlarni topinglar, deb topshirib bergapdim. Oxirgi yillarda yana

qancha qatag'on qurbonlari aniqlandi va aniqlanmoqda. Adolat nuqtayi nazaridan qahramon bobolarimizning nomlarini tiklayapmiz. O'tgan bir yil ichida O'zbekiston Oliy sudi tomonidan 235 nafar ana shunday vatandoshimiz oqlandi. Jadid bobolarimiz nomida muzeylar, maktablar tashkil qilyapmiz. Toshkent markazida Abdulla Qodiriy maktabini qurib, haykalini o'rnatdik. Nima uchun? Odamlar o'tganda ko'rish, "Men kimlarning avlodiman" deb o'ylashi, asarlarini bilishi kerak. Yoki Cho'p'ponni tiklash qanday qiyin bo'ldi? Bugun biz pastga tushinglar, xalqning ichiga boringlar, deya'p'miz, xalqdan kuch olayapmiz. Cho'p'pon ham shunday degan. Bunday xayrli ishlarini to'xtatmaslik kerak. Yangi kitoblar, filmlar chiqarish zarur".

Shuning uchun ham kitob muallifi O'zbekistonda adliya vazirligi tarixi bilan bog'liq ushbu kitobga sho'rolar davridagi qatag'onlar bilan bog'liq voqea-hodisalarini kiritish, ular haqida so'z aytish zarur, degan xulosaga keladi hamda uni quyidagilar bilan izohlaydi:

birinchidan, qatag'onlar davrida sho'rolar rahbarlari adliya tizimi tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar, qarorlar, farmonlar va boshqa huquqiy hujjatlardagi inson erki, sha'ni, qadri-qimmatini bilan bog'liq qoidalarni qo'pol ravishda buzidilar, aniqrog'i, ularni umuman e'tiborga olmadilar. Huquqsizlik, qonunsizlik hukmron bo'ldi;

ikkinchidan, adliya tizimida, shuningdek sud, prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarda faoliyat yuritgan insonlarning bir qismi ham turli davrlarda qatag'on qurbonlariga aylandilar;

uchinchidan, qatag'on qurbonlari bo'lgan jabrdiydalarning nomlarini oqlash, ularning haq-huquqlarini tiklash, faoliyatlariga xolis baho berib, gunohsiz jazolanganlarini isbotlab berish ham aksariyat hollarda adliya tizimi vakillari zimmasiga tushdi.

Shuning uchun ham ushbu kitob-

da sobiq Sovet ittifoqida qatag'on uch marta o'tkazilgan bo'lsa, uning chekka o'lkasi Turkiston, shu jumladan O'zbekistonda besh marta amalga oshirilganligi ta'kidlanib, O'zbekiston SSRda birinchi qatag'on 1925–1930-yillar oralig'ida yuz bergani, 17–20 ming atrofida oilalar Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Sibir, Qozog'iston, Uzoq Sharq va boshqa o'lkalarga surgun qilinganligi va qatag'on oqibatlari keltirilgan.

Qatag'onning ikkinchi to'liqini (1929-yilda) mavjud tuzumga muxoli-fatda bo'lganlar, bolsheviklarga xizmat qilayotgan ko'plab ziyolilar "xalq dushmanlari", "burjua millatchilari" kabi ayblovlar bilan jismonan mahv qilinib, yo'q qilishga kirishilganligi aniq faktlar bilan yoritib berilgan.

Xususan, O'zbekiston SSR Oliy sudining raisi Sa'dulla Qosimov va uning 6 ta safdoshi ustidan Samarqand shahrida SSSR Oliy sudi sayyor sessiyasida sud jarayoni bo'lib o'tadi va unda sudlanuvchilarga bosmachilarni qo'llab-quvvatlashda, aksilinqilobchi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog'lashda, islom dinini himoya qilishda va sovetlarga qarshi "Qosimovchilik" guruhini tuzishda ayblanadilar va sud hukmiga ko'ra S. Qosimov, B. Sharipov, N. Alimov otib o'ldirishga, qolgan 3 ta sudlanuvchilar 10 yildan qamoq jazosiga hukm qilinadilar.

"Katta terror", "Katta qirg'in" – deb atalgan uchinchi qatag'on 1936–1937-yillarda amalga oshirilganligi, O'zbekiston SSR bo'yicha 1489 kishi otib o'ldirilgani va 3 ming 950 kishi surgun qilingani qayd qilingan. Ularning qatorida turli yillar Yustitsiya komissarlari bo'lgan A. Sidorov, H. Ibragimov, B. Dadaboyev, I. G'oziyev, A. Mavlonbekov, D. Ahmadbekov, S. Xo'jayevlar ham bo'lgan.

To'rtinchi qatag'on 1950–1952 yillarda to'g'ri keldi va unda ijodkorlar, olimlar turli fikrlar aytishdan, ko'ngillaridagi orzu-niyatlarni izhor qilishdan mahrum qilingan. Bu davrda respublikamizdan Maqsud Shayxzoda, Shuhrat, Shukrullo, Hamid Sulaymon, Ortiq Qayumov, Habibullo Qodiriy kabi yuzlab ziyolilar Sibir, Qozog'iston va Uzoq Sharqdagi qamoqlarga tashlangan.

Sovetlar davrining 1983–1989-yillarida O'zbekistonda beshinchi qatag'on amalga oshirilgan. Dastlab "paxta ishi", ya'ni paxtachilikda qo'shib yozishlar, korrupsiya holatlari, paxta tayyorlash tizimidagi suiiste'moliklar bilan bog'liq holda boshlangan qatag'on, keyinchalik "o'zbeklar ishi"ga aylantirilganligi ta'kidlanib, unda besh mingga yaqin qishloq xo'jaligi xodimlari, rahbarlar, paxtakorlar, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari jazolanganligi, aslida ushbu qatag'on dahshatlarini xalqimizning bir necha o'n minglab vakillari boshidan kechirganligiga aniq misollar keltiriladi.

Muallif tomonidan mamlakatimizda qatag'on qurbonlarini oqlash bo'yicha amalga oshirilgan va oshirilayotgan mashaqqatli ishlar to'g'risida ham ma'lumotlar berilgan.

Foziljon OTAXONOV,

O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi professori, yuridik fanlar doktori

8 ADABIY AYVON



Chin muhabbat

– Adajon yana supada uxlab qoldilar, ovqat yemadilar. Xotining gapidan so'ng qaytib hovliga chiqqan Sarvar g'ujanak bo'lgancha uxlab yotgan otasining yelkasiga ko'rpa tortib qo'ydi. "Adamni uylantiramiz shekilli, akalarim bilan maslahatlashishim kerak"...

Qurbon Masturaga sevib uylandi, to'rt o'g'il ko'rdilar. Mastura haqiqiy mastura edi. Qurbonni pirdek e'zozlar, soyasiga salom berar, ko'chadan kirib kelsa, hech yo'q solgan ko'rpachasini bir silkib, teskarisini solardi. Ko'ziga tik boqmagan, boriga qanoat qilgan, maktabda muallima bo'lsa-da, uyda shogirddek itoatkor edi. Uylari u bilan fayzli, taomlar u bilan totli edi. Qurbon oddiy satarosh bo'lsa-da, uyida podshohdek e'zozda edi. Masturasi bedavo dardga chalinib, qirq olti yoshida olamdan o'tdi, yaqinda bir yil to'ladi. Qurbonga olamlar tor bo'ldi. Na uyga, na ko'chaga sig'adi.

Farzandlari onasiga tortgan, bir-biridan mo'min-qobil, itoatgo'y, mehnatkash, mehribon, ammo hammasi bir bo'lib ham Masturaning o'rnini bosolmaydi.

Bugun o'g'illar yig'ilib, uni uylantirmoqchi ekanliklarini aytdilar. Rad etdi, boshqa bu mavzuda og'iz ochmasliklarini so'radi. Faqat hokimdan unga yer olib berishlarini so'radi, o'g'illari tushundi, otalari mehnat bilan dardini unutmoqchi. Tez orada bog'dorchilikka ixtisoslashgan "Mastura" fermer xo'jaligi tashkil etildi. Sara meva ko'chatlari ekildi. Qurbon astoydil ter to'kdi.

Bugun otasi Sarvardan qishloqqa yaqinda ko'chib kelgan, uch bolasi bor beva ayolnikiga olib borishni so'radi. Sarvar ming o'yda yetib bordi. "Adam uylanishga qaror qilibdilar-da!" Rashkmi, alammi, nimadir ichini kuydirib o'tgandek bo'ldi. Yo'l bo'yi otasi bilan ochilib gaplashmadi.

Eski eshikni odmi kiyingan, ozg'in, yoshgina ayol ochdi. Otasi yon cho'ntagidan kecha sotgan olmalarning pulini oldi, ayolga uzatar ekan:

– Iltimos, ayolimning haqiga duo qiling, ismi Mastura edi, – dedi juvonning ko'ziga qaramaslikka tirishib.

Sarvar titrab ketdi...

Feruza SALXODJAYEVA



Bir savdogar Frankfurt shahri yarmarkasiga keta turib, yo'lda 800 gulden puli bor hamyonini yo'qotib qo'yadi. Bu o'sha paytda juda katta miqdordagi mablag' edi. Bir bosh otning narxi 40 gulden edi. Savdogar yo'qotib qo'ygan puliga 20 bosh ot sotib olishi mumkin edi. Ko'rinish turibdiki, u ancha ko'p pul yo'qotgandi. Shu yo'ldan o'tib borayotgan hunarmand usta hamyonni topib olib, uyiga keladi hamda bu haqda hech kimga gapirmaydi. Chunki u hamyonni egasiga qaytarish uchun kuta boshlaydi.

“Ochko'zlik qanday jazolandi?”



Yakshanba kungi ibodatda qishloq cherkovining pastori bir boy savdogar 800 gulden pul solingan hamyonini yo'qotganligi va kim uni topib, egasiga qaytarsa, 100 gulden mukofot olishini e'lon qiladi. Halol usta hamyonni olib kelib pastorga topshiradi. Ruhoniy savdogarni ham chaqiradi. Savdogar hamyondagi pulni sanab ko'radi – 800 gulden. Ammo u ustaga va'da qilingan 100 gulden o'rniga bor-yo'g'i 5 gulden beradi va boz ustiga hamyonimda 900 gulden bor edi, sen 100 guldenni o'g'irlab olgansan, deb tuhmat ham qiladi. Ayyor va ochko'z savdogar shu tariqa mukofotga atagan 100 gulden pulini asrab qolmoqchi bo'ladi. Usta bunday ochiq tuhmatdan g'azablanib, bir gulden ham olmaganligini ayta boshlaydi. Pastor ustaning halol odam ekanligini tasdiqlaydi. Bu bahsga adolatli yechim topish uchun pastor savdogar va ustani Frankfurt shahar sudiga olib keladi. Sudya tomonlarni diqqat bilan eshitadi. Sudya birinchi bo'lib savdogarga murojaat qiladi: "Injilni qo'lingga olib, hamyonda 900 gulden bor edi, deb qasam icha olasanmi?" Savdogar hech ikkilanmasdan qasam ichadi. Keyin ustaga yuzlanib: "Sen topib olgan hamyonda 800 gulden bor edi deb qasam ichasanmi", – deb so'raydi. Halol usta Injilni qo'lga olib qasam ichadi.

Shundan so'ng sudya hukmni e'lon qiladi: "Ishda hamma narsa oydinlashdi. Usta topib olgan 800 gulden puli bor hamyon savdogarga tegishli emas. Chunki u yo'qotgan hamyonda 900 gulden pul bo'lgan. Shu bois, 800 gulden ustaga beriladi va endi u bu mablag'ni o'z oilasi sarf-xarajatlarga ishlatishi mumkin. Savdogar esa 900 gulden puli bo'lgan hamyonini izlashni davom ettirsin!"

Yoxannes Paulning "В шутку и всерьез" kitobidan
Jaloliddin SAFOYEV tarjimai

E'LONLAR

Urganch tumanlararo ma'muriy sudining 2023-yil 28-sentabrdagi hal qiluv qarori va Xorazm viloyat adliya boshqarmasining tegishli buyrug'iga asosan "Advokat Siroj" advokatlik byurosi advokati Allayarov Siroj Amangaldiyevichga advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilishi va advokat maqomi 2023-yil 28-oktabrdan 2 oy muddatga to'xtatildi.

Navoiy viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 2-noyabrdagi 147-um-sonli buyrug'iga asosan Navbahor tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Fazliddinov Asliddin Fazliddinovichga tegishli NV N20022-reyestr raqamli litsenziyaning amal qilishi hamda notarius maqomi tugatildi.

Toshkent shahar adliya boshqarmasi jamoasi uzoq yillar notariat sohasida faoliyat olib borgan

Barno KAMALOVning

vafot etganligi munosabati bilan uning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiradi.

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

2338 0030-7847

772030784008

Bosh
muharrir

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorбек Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qililmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Marusa Hosilova
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch"
ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-
zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma tabaq
hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi-
da chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj – 3500
Buyurtma – 3471

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5